

TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA OMBOR XO'JALIGI TASHKIL
ETILISHINING AUDITI

Ikromov Aziz

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor maxsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom ashyo va materiallarning ulushini imkoniyati boricha kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi. Ushbu muomalalar va talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni tashkil yetganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanish, ikkilamchi resurslarni va yondash mahsulotlarni keng talab etilishi lozim.

Sub'ektga tegishli bo'lgan tovar-moddiy zaxiralari, shu jumladan, yo'ldagi va qayta ishlashga berilgan, ishlanadigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xomashyo va materiallar, aylanma mablag'larning tarkibiga kiritilgan mehnat buyumlarining tarkibi, miqdori, harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, qayta baholash jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishning tartib va qoidalari o'rganiladi.

Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular TMZlar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, TMZlar bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Materiallarning har bir turi bo'yicha normativ miqdori korxonada tomonidan mustaqil belgilanadi. Xo'jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi.



4.1.1.-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlash

Manba. Muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan

Materiallar hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

7. Materiallar harakati bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarini o'z vaqtida tegishli

hujjatlarda rasmiylashtirish.

8. Materiallarni joylashda ularni to'g'ri saqlanish ustidan nazorat olib borish.

9. Moddiy texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib boriladi.

10. Materiallarning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish.


11. Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyatsiya ob'ektlarida to'g'ri taqsimlash.

12. Ichki resurslarni ishga solish maqsadida ortiqcha va foydalanilmayotgan TMZlarni aniqlash va sotish.

Materiallar, yangi mehnat mahsulotini yaratishdagi rolga qarab ikkiga bo'linadi.

a) xom ashyo va asosiy TMZlar.

b) yordamchi TMZlar.



4.1.2.-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash tartibi

Manba. Muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

18. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. // Soliqlar va bojxona xabarлари, 2000 yil 13 iyun.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi PQ-615-sonli Qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi "Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-907-sonli Qarori.

21. Alimov, M. (2019). Buxgalteriya hisobida zaxiralar baholash usullari. Toshkent: "O'zbekiston universiteti nashriyoti".

22. Karimov, A. (2020). O'zbekistonning moliyaviy hisob-kitob tizimi. Toshkent: "Iqtisodiyot va ta'lim".